

SHA'BON MUSTAFO QAZOMIL

AXLOQ QISSALARI

I BOB: IXLOS

TARJIMONLAR:

Aziza Abdulmo'min qizi

Dilsora Dilshod qizi

Mahmuda Umidulla qizi

Rahima Ne'matulloh qizi

Sevara Akmal qizi

2023



TAQDIM

Aziz kitobxon! Qo'lingizdagi ushbu kitob sizga musulmon inson aslida qanday xislatlar bilan xulqlanib, qanday illatlardan chetlanishi kerakligini o'rgatadi. Kitob: «rost gapir, yolg'on gapirma», deb emas, balki «falon odam rost so'zlab yutuqqa erishgan; falon yolg'onchi yolg'on gapirib sharmanda bo'lgan», qabilida ta'lim beradi. Zero bu ta'lim-tarbiyadagi samarasi tez, tajribadan o'tgan hamda qur'oniy uslubdir. Kitob oyat, hadis hamda mashhur olimlarning rivoyatlari asosida yozilgan kichik axloq qissalaridan iborat. Shuning uchun ham uning nomi - «Axloq qissalari». «[Bayanul lisan](#)» tayyorlov kursining bir gurug o'quvchi qizlari tomonidan taqdim etilayotgan ushbu tarjima oxiriga yetishini so'rab Allohga duo qilib qolamiz. Sizlarga esa mutolaa davomida xushkayfiyat va sog'lom fahm hamroh bo'lsin!

Musahhah hamda izohlar muallifi: *Shamsuddin Sadruddin*

03.01.2023

I BOB: IXLOS HAQIDA HIKOYALAR

Ilk azoblanuvchilar

Rivoyat qilinishicha, do‘zaxga kiradiganlarning eng avvalgisi quyidagi uchta toifa insonlar bo‘ladi: qori, boy va shahid. Alloh taolo qoriga aytadi: «Rasulimga nozil qilgan narsani senga o‘rgatmadimmi?» Qori javob beradi:

- Xuddi shunday, ey Robbim!
- O‘rganganlaringdan qay biriga amal qilding?
- Men Qur‘on o‘qib kecha-yu kunduz qoim bo‘lardim.
- Yolg‘on aytding, aksincha sen «falonchi qori», deyishlarini xohlading va shunday bo‘ldi ham!

So‘ngra boy olib kelinadi. Alloh unga aytadi: «Seni biror kishiga ehtiyojning tushmaydigan darajada boy qilib qo‘ymadimmi?»

U aytadi:

- Xuddi shunday, ey Robbim!
- Men senga ato qilgan narsalarimdan qay biriga amal qilding?
- Qarindoshlik aloqalarini bog‘lab sadaqalar berdim.
- Yolg‘on aytding! Sen «falonchi juda ham saxiy ekan» deyishlarini xohlading, shunday deyishdi ham.

So‘ng Alloh yo‘lida qatl qilingan kishi olib kelinadi. Alloh unga: «Nimaning yo‘lida o‘ldirilding?» deydi. Shahid aytadi: «Sening yo‘lingda jang qilishga buyurilgandim, keyin qatl qilingunimcha jang qildim».

Shunda Alloh unga qarata: «Yolgʻon aytding, sen «falonchi qoʻrqmas, jasur» deyishlarini xohlading, shunday deyishdi ham», deb aytadi.

Keyin Alloh ularga hukm qiladi: ular ushlanib, doʻzaxga tashlanadilar.

Yigʻi sababi

Kunlarning birida Umar ibn Xattob roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning masjidlariga chiqdilar. Shunda Muoz ibn Jabal roziyallohu anhuni Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning qabrlari yonida qattiq yigʻlab oʻtirganini koʻrdilar.

Umar unga: «Nega yigʻlayapsan?» – dedilar. Muoz: «Rasululloh alayhissalomdan bir hadis eshitgan edim. U zot aytgandilarki: «Riyoning eng yengili ham shirkdir. Kim Allohning doʻstlariga dushmanchilik qilsa, darhaqiqat, u Allohni urushga chorlagan boʻladi. Albatta Alloh taqvodor, solih, yoʻq boʻlsalar qidirilmaydigan, bor boʻlsalar tanilmaydigan insonlarni yaxshi koʻradi. Ularning qalblari hidoyat chiroqlaridir».

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bizlarni mana shu tarzda riyodan tinmay qaytarar edilar. Riyo bu - kishining oʻz amali bilan Allohning roziligini emas, balki insonlarning roziligini maqsad qilishidir. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bizga aytadilar: «Insonlarning Allohga eng suyuklisi – ixlos qiluvchilardir».

Maxfiy shirk

Bir kuni Abu Muso Ash'ariy roziyallohu anhu o'rnidan turdi-da, odamlarga xutba qilib bunday dedi: «Ey odamlar, bu shirkdan ehtiyot bo'linglar! Chunki u chumolining o'rmalashidan ham maxfiyroqdir». Shunda uning gapidan qoniqmagan ikki kishi turib, agar u gapirgan so'zlariga dalil keltirmasa, mo'minlar amiriga shikoyat qilishlarini aytib tahdid qilishdi.

Shunda Abu Muso Ash'ariy aytdi: «Kunlarning birida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bizga xutba qilib dedilar: «Ey insonlar, bu shirkdan ehtiyot bo'linglar, chunki u chumolining o'rmalashidan ham maxfiyroqdir». Shunda bir sahoba Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga dedi: «Agar u chumolining o'rmalashidan ham maxfiyroq bo'lsa, biz undan qanday saqlanamiz, ey Allohning Rasuli?»

U zot: «Ey Alloh, biz biladigan narsalarimiz bilan Senga shirk keltirishdan panoh so'raymiz va bilmaganlarimiz uchun Sendan mag'firat so'raymiz» – deb aytinglar» – dedilar.

Izoh: Duoning arabcha matni quyidagicha:

اللَّهُمَّ إِنَّا نَعُوذُ بِكَ مِنْ أَنْ نُشْرِكَ بِكَ شَيْئًا نَعْلَمُهُ وَنَسْتَغْفِرُكَ لِمَا لَا نَعْلَمُهُ

*Allohumma innaa na'uzu bika min an nushrika bika shay'an na'lamuhu va nastag'fruka
lima laa na'lamuhu!*

Obid va ikki dinor

Banu Isroilning obidlaridan biri daraxtga sig'inayotgan qavm haqida eshitib qolib bundan g'azablandi. Bolta olib, o'sha daraxtni kesish uchun yo'lga chiqdi. Yo'lda unga keksa chol qiyofasidagi Iblis yo'liqib: «Qayerga ketyapsan?» dedi. Obid unga bo'lgan voqeaning xabarini berdi. Iblis uni to'xtatishga urindi. lekin obid u bilan kurashib, uni yerga yiqitdi. Shunda Iblis unga har kuni ikki dinor berish evaziga daraxtni kesish fikridan qaytishni taklif qildi. Obid bunga rozi bo'ldi.

Birinchi va ikkinchi kunlari obid uyidan ikki dinor topdi. Uchinchi kuni hech narsa topolmay, jahli chiqib, boltasini oldi-da daraxtni kesish uchun yo'lga chiqdi. Yo'lda unga Iblis keksa chol qiyofasida yo'liqdi. Daraxtni kesishdan qaytarish uchun u bilan urushdi. Bu safar Iblis g'olib bo'ldi.

Shunda haligi obid unga: «Qanday qilib bu safar meni yengding?!» – dedi. Iblis javob berdi: «Birinchi marta Alloh uchun g'azablanganding va amaling xolis U uchun bo'lgan edi. Shuning uchun Alloh seni mendan saqlagan edi. Bu safar esa ikki dinorni yo'qotib qo'yib nafsing uchun g'azablanding, shuning uchun bu safar men seni yengdim».

Teshik egasi

Janglarning birida dushmanlar mustahkam qal'aning ichida to'planishdi. Musulmon qo'shini qal'ani buza olishmadi. Keyin musulmonlar qal'a ichidagi dushman taslim bo'lgunicha ularni qamal qilib turishga qaror qildilar. Tonglarning birida musulmonlar qal'a ichidagi bir yoriqni ko'rib qolishdi. Shunda qo'mondon: «Bu teshikni kim ochdi?», deb so'radi. Lekin hech kim javob bermadi. Qo'mondon haligi teshikni ochgan inson o'zini bildirgisi kelmayotganini tushungach: «Alloh nomi bilan qasam ichaman, u mana shu kecha mening oldimga kelsin!» dedi.

Kech kirganda qo'mondonning huzuriga yuzini yopinchiq bilan to'sib olgan bir kishi kirdi. Qo'mondon unga: «Bu teshikni ochgan odam senmisan?» – dedi. U: «Ha», deb javob berdi. Shunda qo'mondon: «Unda seni tanishim uchun yuzingni och!» dedi.

Niqob egasi: «Mening uchta shartim bor: meni sizdan boshqa hech kim bilmasligi kerak, musulmonlarning ortiqcha mol-mulkidan menga (hadya o'laroq) hech narsa bermaysiz va oldin qanday bo'lsam hozir ham oddiy askarligimcha qolaman». Qo'mondon haligi kishining o'z amali hech qanday riyo va sum'asiz, xolis Alloh uchun bo'lishini xohlayotganini ko'rdi-da, uning shartlariga rozi rozi bo'ldi.

Izoh: Riyo (الرياء) - odamlar ko'rishi uchun amal qilish.

Sum'a (السمعة) - odamlar eshitishi uchun amal qilish.

Muxlis kishi

Bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sahobalariga hikoya qilib shunday dedilar: «Bir kishi: «Men sadaqa qilaman», dedi-da, sadaqasini olib chiqib o‘g‘rining qo‘liga topshirdi. Odamlar bu kecha o‘g‘riga sadaqa qilinibdi, deya gapira boshladilar. Shunda haligi kishi: «Ey Alloh, o‘g‘ri uchun Senga hamd bo‘lsin! Men yana sadaqa qilaman», dedi.

So‘ng sadaqasini olib chiqib zinokor ayolga berdi. Odamlar bu kecha zinokor ayolga sadaqa qilinibdi, deya gapira boshladilar. Shunda haligi kishi: «Ey Alloh, bu zinokor ayol uchun Senga hamd bo‘lsin! Men yana sadaqa qilaman», dedi.

So‘ng sadaqasini olib chiqib boyning qo‘liga topshirdi. Odamlar bu kecha boyga sadaqa qilinibdi, deb gapira boshlashdi. Shunda u: «Ey Alloh, o‘g‘ri, zinokor va boy uchun Senga hamd bo‘lsin», dedi.

So‘ng Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sahobalariga shunday dedilar: «Haligi odamning oldiga bir kishi kelib Alloh uning sadaqasini ixlosi va to‘g‘ri niyati uchun qabul qilganini xabar berdi. Keyin unga aytili: o‘g‘ri uchun qilgan sadaqang ehtimol uni o‘g‘rilik qilishdan to‘sar, zinokorni esa zinosidan qaytarar, boy esa bundan saboq chiqarib, Alloh berganlarini infoq qilar».

Ummu Qays muhojiri

Makka ahlidan bo‘lgan bir qul arablarning sharafligi, Ummu Qays ismli qiziga uylanmoqchi bo‘ldi. Qizning oilasi qizlarini bu kishiga turmushga berishdan bosh tortdilar.

Islom dini kelgach Ummu Qays musulmon bo‘ldi. So‘ng hijratga izn berilgan vaqtda u ham Madinaga hijrat qildi. Haligi kishi ham qizning ortidan unga o‘sha yerda uylanish maqsadida hijrat qildi. Sahobalar uni «Ummu Qays muhojiri» deyishar edi. Chunki u o‘zi uylanishni xohlagan ayol uchun hijrat qilgandi. Uning hijrati xolis Allohga va Rasuliga bo‘lmagan edi.

Bundan kelib chiqadiki, kishining niyatida hamda maqsadida amalining qabul bo‘lishi yoki rad etilishi uchun katta ta’sir bor.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: «Albatta, amallar faqat niyatlarga ko‘radir. Har bir kishiga niyat qilgan narsasi bo‘ladi. Kimning hijrati dunyoga yetishish yoki bir ayolni nikohlab olish uchun bo‘lsa, uning hijrati o‘sha hijrat qilgan narsasiga bo‘ladi».

Ixlos kalimasi

Rivoyat qilinishicha, bir kuni Nabi sollallohu alayhi vasallam sahobalari bilan birga o‘tirib, ularga dedilar: «Kim ixlos bilan: «Laa ilaaha

illalloh», ya'ni Allohdan o'zga birorta ham iloh yo'q», desa, jannatga kiradi».

Shunda sahobalar (Alloh barchalaridan rozi bo'lsin) u zotdan: «Ey Allohning Rasuli, uning ixlosi qanday bo'ladi?» deb so'rashdi. U zot: «Alloh harom qilgan narsalardan saqlanishingizdir» – dedilar...

Shuning uchun bandaning «Laa ilaaha illalloh» deyishi undan qalbini Alloh taolo uchun xolis qilishini, Unga hech kimni sherik qilmasligini, toat va ibodatlarida yolg'iz Allohgagina yuzlanishini talab qiladi.

Zero Alloh subhanahu va taolo O'zi uchun xolis qilingan va O'zining roziligi qasd qilingan amalnigina qabul qiladi.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: «Kim «Laa ilaaha illalloh» kalimasini ixlos bilan aytsa-yu, katta gunohlardan saqlansa unga osmon eshiklari to arshga yetib borgunicha ochib beriladi».

Ixlos va najot

Uch kishi safarda edi. Ular tunni o'tkazish uchun g'orga kirdilar, shunda tog'dan katta xarsangtosh tushib, g'or og'zini to'sib qo'ydi. Keyin ular Robbilariga solih amallari bilan najot so'rab duo qildilar.

Birinchisi aytdi: «Mening keksa ota-onam bor edi. Ularni ovqatlantirmagunimcha o'zim hech narsa yemas va ichmas edim. Bir kuni ularning oldiga kelganimda ular uxlab qolishgan ekan. Shunda ular

uyg'onib taomlanmagunlaricha huzurlarida qo'limdagi taom bilan tik turaverdim».

Ikkinchisi aytdi: «Men amakimning qizini yaxshi ko'rar edim. Bir kuni qizning ozgina puldan menga ehtiyoji tushib qoldi. Shunda u bilan fahsh ish qilish sharti bilan unga pul berishimni aytdim. Qiz menga Allohni eslatdi. Men Allohni esladim. U Zotdan qattiq qo'rqib qizga pulni (hech qanday shartsiz) berdim».

Uchinchi kishi aytdi: «Mening huzurimda bir odam ishlar edi. U o'z haqini olmasdan ketib qoldi. Men esa o'sha mol bilan savdo qildim, oxiri boyligim ko'payib ketdi. Haligi haqdor kishi kelib, o'z haqini talab qilganda o'sha mollarning barini unga berib yubordim».

Ularning har biri o'z so'zini tugatgandan so'ng shunday deb duo qilishdi: «Ey Alloh, agar men shu ishni Sening roziliging uchun qilgan bo'lsam, bizni mana shu holatdan qutqargin».

So'ng haligi tosh ochilib, ular ixloslari uchun mukofot o'laroq g'ordan sog'-omon chiqdilar.

Qimmatbaho idish

Musulmonlar Madyan shahrini fath qilishgach o'ljalarni to'play boshladilar. Ular shu asnoda ekanlar, bir odam qimmatbaho idishni ko'tarib keldi-da, uni o'ljalar orasiga qo'ydi. Shunda musulmonlar bu odamning ishidan ajablandilar. Ular aslida idishda nimadir bo'lgan-u,

haligi kishi uni olib qo‘ygan, deb o‘yladilar. Chunki ular o‘ljalarning ichidan bu idishga o‘xshashini hech ko‘rmagandilar. So‘ng ular: «Undan biror narsa oldingmi?» – deb so‘rashdi.

Haligi kishi aytdi: «Allohga qasam, agar Alloh bo‘lmaganida uni sizlarga olib kelmagan bo‘lardim».

Ular bu kishining ishonchli ekanini bilib: «Sen kimsan?» – deya so‘rashdi. Haligi kishi qilgan ishimni hech kim maqtamasin, deb ularga ismini aytishni xohlamadi va: «Lekin men Allohga hamd aytaman va Uning beradigan savobiga roziman» – dedi.

U jo‘nab ketgandan keyin kimligini bilish uchun ortidan odam yubordilar. Yuborilgan kishi (odamlardan) u haqida so‘raganida bu kishi ulug‘ sahobiy Omir ibn Abduqays roziyallohu anhu ekanini bildi.

Izoh: Muallif sahobiy deb keltirgan Omir ibn Abduqays aslida tobe‘in bo‘lgan. Kunyasi - Abu Abdulloh yoki Abu Amr, nisbasi - Tamimiy Anbariy Basriy. Umar hamda Salmon (roziyallohu anhumo) lardan hadis rivoyat qilgan. Imom Zahabiy «Siyar» bu kishini: «peshvo, zohid, valiy» deya ta‘riflagan. Vallohu a‘lam.

Allohga yo‘liqish

Kunlarning birida bir kishi Nabiy sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib janglarda Allohning roziligini istab urushmoqchi ekanini, shu bilan birga odamlar uning shijoati va kuchliligini ham ko‘rishlarini istayotganini aytdi.

Nabiy alayhissalom sukut qildilar va unga javob bermadilar. Shunda Alloh taoloning quyidagi soʻzlari nozil boʻldi: **«Bas, kim Robbiga roʻbaroʻ kelishni umid qilsa, yaxshi amal qilsin va Robbisi ibodatiga birortani sherik qilmasin».** (*Kahf:110*)

Shu tarzda Quʻroni karim bizga oʻrgatadiki, Alloh taolo faqatgina Oʻzining roziligi uchun ixlos ila bajarilgan va Undan boshqasi koʻzlanmagan amalni qabul qiladi.

Hadisi qudsiyda keladi: «Men sheriklardan eng behojat boʻlgan Zotman. Kim Men uchun Mendan boshqani sherik qilib bir amal qilsa, Men undan pokman. Uning amali sherik qilgani uchun boʻladi».

Qaytarilgan namoz

Kunlarning birida Nabiy alayhissalom sahobalar oldiga chiqib shunday dedilar: «Ey odamlar, saroir shirkdan saqlaninglar».

Saroir (السرائر): insonning niyati, sir tutadigan biror ishi.

Ular: «Ey Allohning Rasuli, saroir shirk nima?» – deb soʻrashdi.

Shunda u zot: «Bir kishi turib namoz oʻqiydi-da, uni odamlarning nazari tushishini istab chiroyli qiladi. Mana shu saroir shirkdir».

Shu tarzda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam insonlar unga qarab turganini bilganida namozini chiroyli qilib, unga hech kim qaramayotganini bilgach namozini yomon ado etadigan kimsani ogohlikka chaqirar edilar. Inson namozini odamlarning nazari uchun

chiroyli qilib ko'rsatishi emas, aksincha, Allohning roziligini istab uni bezamog'i lozim.

Rivoyat qilinadiki: «Kim namozini odamlar ko'rib turgan vaqtda chiroyli qilib, xoli qolganda yomon aso etsa, mana shu ishi Robbisini mensimasligi bo'ladi».

Ixlos qissalariga xulosa

Ixlos buyuk xulq bo'lib, haqiqiy musulmon kishining ulug' sifati hisoblanadi. U amallarning qabul bo'lishida asl asosdir.

Ixlos – kishi o'z ibodati va amallarini faqat Alloh uchungina qilishidir.

Darhaqiqat, Alloh taolo payg'ambarlar va mo'minlarga amallarida ham, so'zlarida ham ixlosli bo'lishni amr qiladi. U Zot O'z Payg'ambariga xitob qilib shunday degan: **«Ayt (ey Muhammad): «Allohga dinni xolis qilgan holda ibodat qilishga buyurildim».** (Zumar:11)

Endi mana shu Rasul (sollallohu alayhi vasallam) Robbisining buyrug'iga bo'ysunib shunday deydilar: **«Ayt: mening namozim, ibodatlarim, tirilishim va o'lishim ham olamlarning Robbi Alloh uchundir».** (An'om:162)

Barcha ishlarimiz-u holatlarimizda Allohga ixlosli bo'lishimiz, natijada Uning savobi va roziligiga erishishimiz naqadar go'zal!

Yuqoridagi qissalar ixlos haqida so'zlaydi. Ularni o'rganib, xulosa va ibrat olishimiz kerak.

Allohga hamdlar bo'lsinki, I bob: ixlos
haqidagi hikoyalar tarjimasini nihoyasiga yetdi!
Inshaalloh, II bob «**OMONATDORLIK**»
haqida bo'ladi.